

PUDRAT SHARTNOMASI № 55

Qiziltepa tumani

15 dekabr 2022 yil

Keyingi o'rinlarda "PUDRATCHI" deb yuritiladigan **Qiziltepa TYFUK** nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor **J.Q.Majidov** bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Yordamchi Pudratchi" deb yuritiladigan "Nasiba Kelajak Sari" MCHJ nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor **X.X.Qosimov** birgalikda taraflar deb nomlanib **O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlari to'g'risidagi UZ RTXB ning exarid/uzex/uz axborot portaliga joylashtirilgan LOT 202701 sonli e'loni va Qiziltepa TYFUK tanlov komissiyasining 2022 yil _____ sonli yig'ilishi bayoniga asosan**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil "18" may "Sement-beton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-249-sonli qarori qabul qilinganligini;

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2022 yil «13» iyundagi VI-34-85-5-0-K/22-sonli qarorining 4-bandiga muvofiq "Qizilqumsement" AJ bosh pudratchi qilib belgilanganligini;

3. Ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari Navoiy viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi (buyurtmachi) tomonidan moliyalashtirilgan mablag' hisobidan amalga oshirilishini;

1. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Yordamchi Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha o'ziga ajratilgan ob'ektda ichki yo'llarni ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan holda sifatli bajarib topshirish majburiyatini oladi, PUDRATCHI esa Yordamchi pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi. **"Yordamchi pudratchi" Navoiy viloyati Qiziltepa tumani "Furqat" MFY hududidagi ichki yo'llarini ta'mirlash ishlarini to'lig'icha bajarib, foydalanishga topshirish majburiyatini oladi.**

1.2. PUDRATCHI Buyurtmachi tomonidan Yordamchi pudratchiga ob'ekt uchun tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarini taqdim etilishida ko'maklashish, bajarilgan ishlarni o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlash, ichki yo'llarning tayyor bo'lgan qismini qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

2.1. Ushbu ob'ektning shartnoma qiymati QQS bilan 1 097 675 000 **beton summasi xam to'liq qo'shiladi** (bir milliard to'qson yeti million olti yuz yetmish besh ming) so'mga tuzildi.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Mazkur shartnoma tuzilib tasdiqlangandan keyin PUDRATCHI Yordamchi pudratchining hisob raqamiga bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning 30 % (o'ttiz) foizigacha bo'lgan miqdorda avans mablag'ini o'tkazadi.

3.2. PUDRATCHI va Yordamchi pudratchi har oyda bajarilgan ta'mirlash ishlarini "Ma'lumotnoma-hisob-faktura" (F-2 va F-3) bilan rasmiylashtiradi. PUDRATCHI tomonidan to'lovlar va hisob-kitoblar shartnomaga asosan faqat Yordamchi pudratchining vakolatli bankidagi yoki g'aznachilikdagi maxsus hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3 Bajarilgan ta'mirlash ishlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan "Ma'lumotnoma-hisob-faktura"ga asosan moliyalashtiriladi. Bunda joriy moliyalashtirish ajratilgan avans mablag'ining har oyda amalda bajarilgan ishlar miqdoridan foiz hisobida taqsimlangan holda ushlab qolib, ob'ektning shartnomaviy qiymatining 95 foizidan kam bo'lmagan miqdorida amalga oshiriladi.

3.4. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatidagi 5 foiz miqdoridagi mablag', ob'ekt davlat kabul komissiyasi tomonidan foydalanishga qabul qilib olingan kundan boshlab 12 oylik kafolat muddati o'tgandan so'ng moliyalashtiriladi,

3.5. Qurilish ob'ektida PUDRATCHI tomonidan etkazib berilgan qurilish materiallari harajat summasi smetada yoki bajarilgan ishlar dalolatnomasida ko'rsatilgan narxlar doirasida pudratchining boshqa xarajatlari qatoridan keyin Yordamchi pudratchining bajargan ishlari summasidan chegirib qolinadi.

3.6. Yordamchi pudratchi Pudratchiga bajarilgan ishlar qiymatidan 2(ikki) % Pudratchi xizmati to'lab beradi

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLARI

4.1. Yordamchi pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni Navoiy viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi (buyurtmachi) va Qiziltepa TYFUK (pudratchi) o'rtasida kelishilgan ishlarni bajarish jadvalida belgilangan muddatlarda bajaradi.

4.2. Shartnomaning amal qilish muddati: Shartnoma imzolanib ro'yxatga olingan sanadan boshlab 31.12.2022 yilgacha.

5. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Yordamchi pudratchining majburiyatlari:

5.1.1. Ta'mirlash ishlari olib borilayotgan davrda ushbu yo'l qismida yo'l va yo'l inshootlari elementlarini saqlash ishlarini amalga oshiradi hamda avtotransport vositalarining xavfsiz harakatini ta'minlaydi;

5.1.2. Ob'ektning ijro xujjatlarini rasmiylashtiradi va PUDRATCHIga topshiradi shuningdek, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikatini, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarning texnik pasporti hamda boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

5.1.3. Ob'ektida tasdiqlangan loyihaga muvofiq qurilish qoidalari va me'yorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajaradi hamda ishni PUDRATCHIga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi hamda kelgusida barcha bajarilgan ish hajmlari va qiymati uchun PUDRATCHI, Buyurtmachi hamda tekshirish va nazorat qilish xuquqiga ega bo'lgan boshqa vakolatli organlar oldida to'liq mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

5.1.4. Qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi;

5.1.5. Qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlaydi;

5.1.6. Ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishiga Yordamchi pudratchi to'liq javobgar bo'ladi. Bajrunchi o'ziga birlashtirilgan ob'ektida bajarilgan ta'mirlash ishlarining xajmi, sifati va SHNK talablariga javob berishi yuzasidan PUDRATCHI yoki tekshirish va nazorat qilish xuquqiga ega bo'lgan boshqa organlar oldida javobgarlikni to'liq o'z zimmasiga oladi.

5.2.6. Agar PUDRATCHI YORDAMCHI PUDRATCHI tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda YORDAMCHI PUDRATCHI o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan 5 yil muddatda qayta bajarishga majburdir. Agar YORDAMCHI PUDRATCHI sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, YORDAMCHI PUDRATCHI ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni PUDRATCHI ga to'laydi.

5.2. PUDRATCHIning majburiyatlari:

5.2.1. PUDRATCHI Buyurtmachining texnik vakili ta'mirlash ishlarining sifatli bajarilishi ustidan doimiy nazoratni va mazkur shartnomada qayd etilgan Yordamchi pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Yordamchi pudratchidan tugallangan ishlarni, amaldagi qonunchilik xujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olinishini ta'minlaydi;

5.2.2. Yordamchi pudratchining barcha murojaatlarini bir oy muqdat ichida ko'rib chiqishi va shu asosda qaror qabul qilishi mumkin;

5.2.3. Moliyalashtirish jadvaliga binoan Yordamchi pudratchiga mazkur shartnomaning 2- ilovasiga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

5.2.4. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab bir oy davomida Yordamchi pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'ladigan barcha ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

5.2.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

5.2.6. PUDRATCHI Yordamchi pudratchini ob'ekt uchun talab etiladigan beton mahsulotini loyihada ko'rsatilgan markada ta'minlashni o'z zimmasiga oladi, bunda beton mahsulotini topshirish-qabul qilish PUDRATCHIning beton tayyorlash bo'linmasida amalga oshirilib, qabul qilib olingan beton mahsulotining keyingi sifati va miqdori uchun javobgarlik Yordamchi pudratchi zimmasiga o'tadi.

5.2.7. PUDRATCHI Yordamchi pudratchining laboratoriya vakilini beton ishlab chiqarish bo'linmasiga kirishiga va ishlab chiqarilgan beton mahsulotidan namuna olishiga ruxsat beradi

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining 0,5%, ammo 10% dan ortik bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Yordamchi pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, PUDRATCHI qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Yordamchi pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Penyani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6.5. Boshqa javobgarliklar bo'yicha tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan to'liq javobgardirlar.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (engib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma engib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun etarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf engib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar engib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 2 oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatliq taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

9. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA UNGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

9.1. Mazkur shartnomaga har kanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, etkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

9.3. PUDRATCHI quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli:

- Yordamchi pudratchining aybi bilan ishning borishi ushlanib qolsa va ishning tugatishning shartnomada belgilangan muddati 31.12.2022 yildan oshiq muddatga kechiktirilsa;

- Yordamchi pudratchining shartnoma shartlarini buzishi oqibatida loyihada nazarda tutilgan ishlar sifati pasaysa.

9.4. Yordamchi pudratchi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli:

- Yordamchi pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra qurilish-montaj ishlari PUDRATCHI tomonidan 3 oydan oshiq muddatga to'xtatilsa;
- PUDRATCHI bajariladigan ishni moliyalashtirish imkoniyatini yo'qotgan bo'lsa.

9.5. Shartnoma bekor qilinganda PUDRATCHI va Yordamchi pudratchining birgalikdagi kelishuviga muvofiq tugallanmagan ishlar PUDRATCHIga topshiriladi va u birgalikda kelishilgan hajmda bajarilgan ishlar qiymatini Yordamchi pudratchiga to'lashi lozim.

9.6. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 5 ish kuni oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Kafolatli foydalanish muddati davomida ob'ektdan normal foydalanish imkoniyatini bermaydigan darajadagi kamchiliklar aniqlansa va ularni bartaraf etmasdan turib ob'ektdan foydalanib bo'lmasa, kafolat muddati kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan muddatga uzaytiriladi. Kamchiliklarni bartaraf etish Yordamchi pudratchi tomonidan va uning hisobdan amalga oshiriladi.

10.2. Kamchiliklarning mavjudligi va ularni bartaraf etish muddatlari PUDRATCHI va Yordamchi pudratchining qo'shma dalolatnomasida qayd etiladi.

10.3. Agar Yordamchi pudratchi kamchiliklar aniqlanganligi haqidagi dalolatnomada ko'rsatilgan muddatda bajarilgan ishlardagi kamchiliklarni bartaraf etmasa, PUDRATCHI kamchiliklarni boshqa ijrochining kuchi bilan, xarajatlarni Yordamchi pudratchiga yuklagan holda bartaraf etishga haqli.

10.4. Yordamchi pudratchi kamchiliklar aniqlanganligi haqidagi dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, PUDRATCHI ularni tasdiqlash uchun malakali ekspertiza tayinlaydi va bu ekspertiza kamchiliklar va ularning xususiyatlarini qayd etgan holda tegishli dalolatnoma tuzadi.

10.5. Ishlarni bajarish davomida Yordamchi pudratchining aybi bilan uchinchi shaxsga etkazilgan zarar Yordamchi pudratchi tomonidan, PUDRATCHIning aybi bo'lganda esa - PUDRATCHI tomonidan qoplanadi. Barcha hollarda Yordamchi pudratchi etkazilgan zararni tugatish uchun zudlik bilan choralar ko'radi, shu jumladan tegishli xarajatlarni PUDRATCHI qoplaydigan taqdirda ham.

10.6. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkala nusxa ham bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxadan beriladi.

TARAFLARNING REKVIZITLARI:

YORDAMCHI PUDRATCHI:

<p>«Nasiba Kelajak Sari MCHJ</p> <p>Кизилтепа тумани, Вангози МФЙ</p> <p>х/р: 20208000505023742002</p> <p>ИНФИН банк Бухоро филиали</p> <p>ИНН:302490410 МФО:01107</p>
--

PUDRATCHI:

<p>“Қизилтепа” ТЙФУК</p> <p>Навоий в. Кизилтепа тумани. Маликобод к.</p> <p>Миллий банк Навоий филиали</p> <p>х/р: 20210000600428117001, МФО: 00196</p> <p>ИНН: 200 016 338, ОКЭД: 51123</p> <p>Телефон: (79)-220-11-70</p> <p>ҚҚС тўловчиси коди: 312 050 011 060</p>
--

Direktor:

D.J.Yakubov.

Direktor:

J.Q.Majidov



Қизилтепа ТЙФУК юристи:
Т.Радов.

